“O‘zmilliybank” AJ
Qorako’l bank xizmatlar
markazi boshqaruvchisi
Sh.R.Hamroyev

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat
Milliy banki AJ Buxoro viloyat Bosh boshqarmasi Qorako’l BXM xodimlari
ishtirokida o’tkazilgan davra suhbati

Bayonnomasi

Qorako’l tuman **24.03.2026 yil**

Raislik qildi: O’zmilliybank Qorako’l bank xizmatlar markazi boshqaruvchisi **SH.Hamroyev**
Qatnashdilar: “O’zmilliyabank” AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi S.Ismatov, “O`zmilliybank”AJ Qorako’l BXM xodimlari. Jami 27 nafar xodim ishtirok etdi.

KUN TARTIBI:

1. **O‘zmilliybank AJ bank xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda manfaatlar to’qnashinuvini oldini olishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish – barqaror rivojlanish kaliti” mavzusida o’quv seminar va davra suxbati.**
2. **Kiberxavfsizlik hamda axborot xavfsizligini taminlash, xodimlarning O’zmilliybank AJ Odob-Axloq qoidalariga qat’iy rioya qilinishi haqida davra suxbati.**

O’zmilliybank AJ Qorako’l BXM boshqaruvchisi Sh.Hamroyev yig’ilishni ochib, bugingi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha O’zbekiston Respublikasida Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan isloxotlar haqida gapirib o’tdilar va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2018 yil 2-yilda ro’yxatdan o’tkazilgan 3030-sonli “Bank xizmatlari iste`molchilari bilan o’zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo’yiladigan minimal talablar to’grisida”gi nizom talablariga rioya etilishi hamda mazkur Nizom bank xizmatlari iste’molchilarining huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadida bank xizmatlari iste’molchilari bilan

munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablarni belgilanishi aytib o'tildi.

Iste`molchilarga kredit va omonat maxsulotlarining shartlari to'grisidagi malumotlarning to'liq taqdim etilishi, terminallar orqali bank kartalaridan to'lovlarni qabul qilish va naqd pul berish bo'yicha xizmat ko'rsatilish,bank muassasalariga mijozlarga xizmat ko'rsatishda yuzaga kelayotgan navbatlarning tartibga solishi, mijozlar bilan bevosita ishlovchi xodimlami odob-axloq qoidalariga amal qilingan xolda ish tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar berib, navbatni "O`zmilliybank" Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bosh mutaxassisi S.Ismatovga berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bo`yicha bosh mutaxassisi S.Ismatov so'zga chiqib, qonun ustuvorligini ta'minlanishini qat'iy nazoratga olinishi, xodimlar o'rtasida qonun, tartib-intizom, yuksak manaviy holatini ushlab turish, jinoiy moyil insonlarni aniqlash va oldini olish, Bank kasb – odob axloq kodeksiga to'liq rioya qilinishi, xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda hodimlarda halollik vaksinasini shakillantirish yuzasidan so'z yurtib, Barchamizga ma'lumki 2025-yil 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi bo'lib o'tdi. Hurmatli Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar qatorida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini tubdan isloh qilish yo'nalishlarida ham alohida to'xtalib o'tdi.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohatlari:

- Korrupsiyaga yo'l qo'yish – islohotlarga xiyonat deb belgilandi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda **"favqulodda holat"** e'lon qilindi;
- Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etilishi ta'kidlandi;
- Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu rahbarlar tizimdagi nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek, byudjet mablag'i talon-toroj bo'lishi va mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatadi va Prezident oldida hisobot beradi;
- **"Lavozimim va unvonim bor, menga hech kim tegmaydi"** deb hisoblagan shaxslar yanglishayotganini, qonun oldida barcha teng ekani alohida ta'kidlandi. Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar, bir so'z bilan aytganda, birorta idora va tashkilot nazoratdan chetda qolmaydi;
- Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli ekotizim yaratamiz. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimini rivojlantiramiz kerakligi takidlandi;
- Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi;
- Komplayens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga sherik, deb baholanadi va javobgarlik shunga mos holda bo'ladi;

- Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati bu tizimni 1 yanvardan boshlab barcha davlat idoralari va tashkilotlarida ishga tushirib, jilovni mahkam qo'lga olishi ta'kidlandi;
- Mansabidan qat'i nazar, poraxo'rlik va suiiste'molchilik bo'yicha har bir holat yuzasidan Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati shaxsan Prezidentga axborot kiritib borishi buyurildi;

Shu tariqa, Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar mamlakatimizda korrupsiyadan xoli muhitni shakllantirish, adolatli jamiyat barpo etish va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilishi haqida aytib o'tildi.

Shuningdek "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan **YO'L XARITASI**"da ko'rsatilgan talablar va bajarilgan ishlar to'g'risida so'z yuritdi. Bank sohasiga oid huquqbuzarliklarga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish har bir xodimdan mas'uliyat talab qiladi, zero, sodir etilgan jinoyatlarga, albatta, javobgarlik muqarrarligi, bankda ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha korsatmalar berildi.

Shuningdek, Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo`limi boshlig'i F.Musoyev so'z olib, bugungi kunda jamiyatimizda keng tarqalayotgan kiberxavfsizlik yuzasidan barcha xodimlarni xabardor qilib har xil turdagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalyotgan hamda telegram messenger kanalaridan yuborilayotgan kibrxujumlardan ogox bo'lish yuzasidan takidlab o'tdilar. Shuningdek axborotni muhofaza qilish to`g`risidagi Nizomga muvofiq bank axborot xavfsizligini muhofaza qilish shu bilan birga bankka zarar etkazilishi holatlarining yuzaga kelishini oldini olish maqsadida Qorako'l BXMda tekshiruv o'tkazilganligi va ushbu tekshiruvda kamchiliklar aniqlanganligi to'g'risida gapirib xar bir mas`ul xodim o'z lavozim yo'riqnomasiga mos ravishda ishlashi, 2886-sonli ichki nazorat qoidalari asosida xar bir mijozni lozim darajada tekshirib identifikasiya qilishi kerakligi bank tizimi bo'yicha mavjud kompyuterlarda faqat o'z faoliyatiga doir ishlarni bajarishi to'g'risida ogoxlantirdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib

Yig'ilish qaror qabul qildi:

1. "O`zmilliybank" AJ Qorako'l BXM boshlig'i Sh.Hamroyev bergan ma'lumoti va "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan YO'L XARITASI"dagi talablar ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari yil davomida har bir yig'ilishda, o'quv seminarlarida xodimlarga yetkazilib borilsin va fuqarolar, bank mizjozlari bilan uchrashuvlarda ham keng qamrovda targ'ib qilib borilsin.

3. O'zmilliybank AJ Qorako'l BXMning barcha xodimlari tomonidan me'yoriy hujjatlarga mos ravishda, o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishni to'g'ri va sifatli olib borilishi ta'minlansin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bo`yicha bosh mutaxassisi **S.X.Ismatov**

Kotib: **D.X.Hamdamova**

Ш Шоралиева
Ф. Зарипова
Д. Бозаркулова
Ш. Ярмова
Г Расулова
Ю. Комолова
Кандшова К
Байдуллаева
Гаримова Ш
Балтаева Д
Бебитов Ж
Алимов Б
Дзойлов В
Ав. Иброхимов
М. Ядгаров
Ф. Сохонов
Б. Ботиров
Б. Ахмед

У Ростамов
Ю. Рахмабов
Д. Хамдамов
Ж. Қосиқодиев
Ж. Шерназаров
У. Бабутов
Х Сувонов